

“Kelajak soati” darsining 1-4-sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi:
30-mavzu: “Kitobxonlik – ma’naviyat manbai”

Umumiy maqsad: O‘quvchilarga kitob mutolaasining shaxsiy yuksalishdagi ahamiyatini tushuntirish.

Annotatsiya. Mazkur darsda o‘quvchilarga kitobxonlikning fikr, nutq, dunyoqarashning rivojlanishida ahamiyati haqida tushuncha beriladi. Dars davomida o‘quvchilar o‘zlari yoqtirgan badiiy asar haqida mulohaza yuritadilar.

Asosiy g‘oya: Har bir mutolaa qilingan ilmiy yoki badiiy asar o‘quvchi kelajagini o‘zgartirishi mumkin. Kitoblar bizni ijodkorlik, sabr-toqat, yangi bilim va tajribalarga o‘rgatadi. Ko‘p kitob o‘qigan bolaning nutqi ravon, fikri teran, dunyoqarashi keng bo‘ladi. Kitoblar bizga atrofimizdagi olamni yanada keng anglashimizga yordam beradi. Ilmiy kitoblar bilimlarimizni mustahkamlasa, badiiy kitoblar ijodkorlik qobiliyatimiz va tafakkurimizni oshiradi.

Materiallar to‘plami:

- ✓ ssenariy;
- ✓ uslubiy tavsiyalar;
- ✓ videomateriallar;
- ✓ interaktiv topshiriqlar;
- ✓ taqdimot.

Tavsiya etilgan mashg‘ulot shakli: bilim beruvchi suhbat, video parchalar, o‘yin elementlari va qo‘shimcha materiallardan foydalanishni nazarda tutadi.

Dars hamkori: Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti.
<https://milliytarbiya.uzedu.uz/>

Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

I. KIRISH. Motivatsion qism (5 daqiqa)

O‘qituvchi: Assalomu alaykum, bolajonlar. Hammangizni bugungi darsda ko‘rib turganimdan xursandman. Qalay, dam olish kunlari yaxshi o‘tdimi? Yangi o‘quv haftasiga tayyormisizlar?

O‘quvchilar: Haa!

O‘qituvchi: Unda boshladik. Bolajonlar, tasavvur qiling, sizda shunday sehrli narsa borki, u bilan uchib ketishingiz, boshqa sayyoraga borishingiz, hatto o‘tmishga qaytib, Amir Temur bobo bilan gaplashishingiz mumkin...

Bu nima bo‘lishi mumkin?

(O‘quvchilar taxmin qiladi: telefon, internet, samolyot...)

O‘qituvchi: Yo‘q. Undan ham kuchliroq narsa bor.

Doskaga yozadi: **KITOB**

O‘qituvchi: Ha, bolajonlar, kitob – bu oddiy qog‘oz emas, balki sehrli eshikdir. U sizlarga o‘tmish sirlarini, bugunning hikmatini va kelajak bilimlarini ochadi.

Kim uchishni xohlaydi, qo‘lingizni ko‘taring.

Kim sarguzashtlarni xohlaydi, qo‘lingizni ko‘taring.

Kim puli ko‘p bo‘lishni xohlaydi, qo‘lingizni ko‘taring.

Bolalar faol qatnashadi.

O‘qituvchi: Demak, bularning barchasiga kitob orqali erishish mumkin.

Kim kitob o‘qisa, o‘sadi. Ya‘ni aqli o‘sadi. Endi u oddiy bola bo‘lib qolmaydi. Ko‘proq biladigan, boshqalardan oldinda yuradigan bola bo‘ladi.

Shu o‘rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning mutolaa haqidagi fikrlarini yodingizga solmoqchiman:

“Bugun bitta kitob o‘qigan bola, ertaga televizor ko‘rib o‘tirgan o‘nta bolani boshqarishi mumkin”.

Bugun biz kitob mavzusini chuqurroq o‘rganamiz. Ya‘ni kitoblar haqida gaplashamiz.

II. ASOSIY QISM (30 daqiqa)

O‘qituvchi: Kitobxonlik – insonning muntazam ravishda kitob o‘qishi, o‘qigan kitobidan ma‘no, bilim va zavq olishi, o‘qishni hayotining bir qismiga aylantirish jarayonidir.

Qani doskadagi rasmlarni tasvirlab beringlar-chi! Kim gapirib beradi, rasmda nimalarni ko‘ryapsiz?

Bolalar rasmlarga qarab kutubxonani tasvirlab beradilar.



Respublika bolalar kutubxonasi rasmi

O'qituvchi: Barakalla o'quvchilar! Bu suratlarda Respublika Bolalar kutubxonasi tasvirlangan. Ushbu kutubxona Toshkent shahrining markazida joylashgan. Bundan tashqari viloyatlar markazlaridan tortib chekka hududlargacha hamma joyda bolalar va kattalar uchun kutubxonalar ochildi. Bularning barchasi hurmatli Prezidentimizning siz bolajonlarga sovg'asidir. Sizlar dam olish kunlari ota-onangiz bilan ushbu kutubxonalar, albatta, boringlar va u yerdagi qiziqarli kitoblarni o'qinglar. Bu juda maroqli dam olish bo'ladi.

Kelinglar, endi siz bilan bir mashq bajaramiz! Men sizlarga 1 daqiqa vaqt beraman. Bu vaqt ichida siz o'qigan kitoblaringiz sonini sanashingiz kerak. 1 deganimda 1 ta kitob o'qigan bolalar qo'llarini ko'tarishi zarur. 5 desam 5 ta kitob o'qiganlar qo'lini ko'taradi. Qani, boshladik!

(1-sinfga savol moslashtiriladi: ota-onasi tomonidan bolaga nechta kitob o'qib berilgani so'raladi).

O'qituvchi: 1,2,3,4,5,6,7,8,9,10

O'quvchilar ustoz aytgan raqamlar orqali kitoblari sonini aytishadi.

O'qituvchi: Barakalla! Kitob o'qish kishiga o'zini, atrof-muhitda bo'layotgan voqea-hodisalarni yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Kitob o'qiganlarning

soʻz boyligi oshadi, nutqi chiroyli boʻladi, bexato yoza boshlaydi, diktantlardan 5 baho oladi.

Yana kitob boshqalar bilan muomalaga kirishishni oʻrgatadi. Kishilarning yashirin qobiliyatlarini ochishga koʻmaklashadi. Xotirani mustahkamlab, fikrlash qobiliyatini yaxshilaydi. Kitob oʻqish mantiqiy fikrlashni ham shakllantiradi. Yaʼni yanada aqlliyoq boʻlasiz.

Hozir esa sizlarga kitob haqida sheʼr oʻqib beraman:

KITOB OʻQIGAN BOLA

Oʻrganar avval odob –

Kitob oʻqigan bola.

Yuzi boʻladi oftob –

Kitob oʻqigan bola.

Hurmat qilar kattani,

Kichiklar jon-u tani,

Bajaradi vaʼdani –

Kitob oʻqigan bola.

Suhbati xoʻp sermaʼno,

Yurish-turishi aʼlo.

Olar faqat “besh” baho –

Kitob oʻqigan bola.

Poʻlat Moʻmin sheʼri

Mana kitob oʻqigan bola qanday boʻlishini bilib oldingiz.

Bolajonlar, kitoblar kecha yoki bugun paydo boʻlib qolmagan. Ular juda uzoq va mazmunli tarixga ega. Birinchi kitoblar bundan minglab yillar avval paydo boʻlgan. Kelinglar, hozir shu haqida video tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Kitob tarixi boʻylab sayohat

<https://youtu.be/JA7dgcRw2i8>

Oʻqituvchi: Bolajonlar, mana kitoblar uzoq tarixga ega ekanligini bilib oldik. Lekin ular bugun ham bizga juda kerak. Ular insonlarga hamma joyda hamroh, hatto kosmosda ham.

Bilasizlarmi, xalqaro kosmik stansiyalarda ham kutubxona mavjud. Bu hozirgi vaqtda fazodagi yagona kutubxona. Unda 100 ga yaqin kitob bor. Bu kutubxonadan fazogirlar foydalanishadi.

Ushbu kutubxona metall disk xotirasiga joylashtirilgan qurilma bo‘lib, ichida minglab kitoblar bor. Fazogirlar ularni o‘qishadi. Ular hatto fazoga yetib borishgan bo‘lsa ham ilm olishdan to‘xtashmas ekan-a? Qoyilmisizlar?

O‘quvchilar: Ha!

O‘qituvchi: Endi esa sizlar bilan kitoblar qanday yasalishini, ya’ni chop etilishini ko‘ramiz. Ekranga qaraymiz.

Vizual kontent

Kitoblar qanday tayyorlanadi?

<https://www.youtube.com/watch?v=Zp5I9buPEJA>

O‘qituvchi: Mana bolajonlar, kitoblar chop etish qanday sehrli olam ekanligini bilib oldik. Albatta, kitob o‘qish ko‘plab muammolarga yechim topish imkonini beradi. Lekin kitob o‘qishni zerikarli mashg‘ulot deb bilib, undan ko‘ra planshetda o‘yin o‘ynashni xohlaydigan o‘quvchilarimiz ham bor ichimizda. Ular ko‘p narsa yo‘qotishadi. Chunki kelajakda hamma kasblarni egallash uchun kitob o‘qish kerak bo‘ladi. Kitob o‘qimaganlar esa kitob o‘qiganlarga har sohada yutqizadi.

Bolajonlar, siz o‘zingizga yoqqan kitobingizning eng qiziqarli qismini aytib bera olasizmi?

(O‘quvchilar javob berishadi).

O‘qituvchi: Endi sizlar bilan o‘yin o‘ynaymiz. O‘yinimizning nomi “Kitob qahramonini toping!”, deb nomlanadi. Hozir sizlarga tanish bo‘lgan kitob qahramonlari haqida gapirib beraman. Siz qahramonni topishingiz zarur.

1-qahramon. Bu qahramon o‘z sayyorasidan kelgan, kichkina, ammo aqlli bola. U atrofdagi narsalarga qiziqish bilan qaraydi, har bir savolga o‘zicha javob topadi va hech kim ko‘rmagan narsalarni ko‘ra oladi. U Feruza gulini yaxshi ko‘radi. Uning qalbi toza, tasavvuri keng, shuning uchun u dunyoni boshqalardan ko‘ra o‘zgacha tushunadi.

O‘quvchilar: Kichkina shahzoda.

Doskaga surat chiqariladi.



O'qituvchi: Juda to'g'ri. Endi keyingi qahramonga o'tamiz.

O'qituvchi: 2-qahramon. Bu qiz mehnatkash, mas'uliyatli va hamma ishni o'z vaqtida bajarishga odatlangan. Ammo uning singlisi esa biroz injiq – u ko'p narsa xohlaydi, o'ziga yoqmagan ishlardan qochadi va ba'zan erkatoyligidan atrofdagilarni kuldirib ham yuboradi.

O'quvchilar: Zumrad!

Doskaga surat chiqariladi.



O'qituvchi: Barakalla! To'g'ri topdingiz. Navbatdagi qahramonga o'tamiz.

O'qituvchi: 3-qahramon. Bu qahramon yog'ochdan yasalgan, juda qiziquvchan va ba'zan sho'x bola. U ba'zida to'g'ri yo'ldan adashib qoladi, ammo

har safar xatosidan saboq oladi. Eng qizig‘i, u yolg‘on gapirsa, burni uzayadi! U doimo haqiqatni aytishga o‘rganib boradi va oxirida yaxshi bolaga aylanadi.

O‘quvchilar: Pinokkio!

Doskaga surat chiqariladi.



O‘qituvchi: Barakalla! Juda topqir ekansizlar! Demak, ko‘rib turibmizki, kitob qahramonlari bizga to‘g‘rilik, mehnatsevarlik va halollikni o‘rgatadi.

Bolajonlar, qahramonlarning barchasi kitoblarda yashaydi. Ular bilan do‘stlashish uchun kitobni ochish kifoya.

Hozir xuddi shunday qahramonlar haqida hikoya va ertaklar yozadigan bir yozuvchi bilan suhbatni tomosha qilamiz. Qani, ko‘raylik-chi, u bolaligida qanday kitoblar o‘qigan ekan.

Vizual kontent

“Bir kitobni 3-4 martalab o‘qib chiqardim” – Nodirabegim Ibrohimova

<https://youtu.be/8Kxsm8zuiI>

O‘qituvchi: Bolajonlar, ko‘rdingizmi, sizlar o‘qiydigan sevimli kitoblaringizni shu kabi aqlli, bilimli va topqir insonlar yozishadi. Keyin ularning yozganlari nashriyotlarda kitob bo‘lib chiqadi. Sizing orangizdan ham yaxshi yozuvchilar yetishib chiqishi mumkin. Bu juda faxrli kasb, yozuvchilar bolalarga bilim, ziyo va ezgulik ulashadi.

III. Yakuniy qism (10 daqiqa)

O‘qituvchi: Aziz bolajonlar! Bugun biz kitob, kutubxona va kitobxonlik haqida gaplashdik. Keling, bugun o‘rgangan bilimlarimizni birgalikda takrorlaymiz!

Kitob – bu o‘qib, yangi narsalarni o‘rganish va sarguzashtga sayohat qilish uchun mo‘ljallangan sahifalar to‘plami.

Kutubxona – kitoblar joylashgan uy, u yerda kitob o‘qish va bilim olish mumkin.

Kitobxonlik – kitobni sevish, o‘qish va undagi ma’noni tushunish odati.

Har kuni 5 daqiqa vaqtimizni kitob o‘qishga ajratsak, miyamiz uchun muhim ozuqa beramiz. Demak, miyamiz o‘sadi va aqlliyoq bo‘lamiz.

Xo‘sh, bugun kim bir varaq kitob o‘qidi? Ertaga kim yana bir varaq o‘qidi?

O‘quvchilar javob berishadi.

O‘qituvchi: Bolajonlar, kitob o‘qish yaxshi. Lekin uni jismoniy harakat bilan ketma-ketlikda qilish kerak. Muk tushib kitob o‘qiganimizdan keyin biroz harakat qilmasak, bo‘ynimiz va yelkalarimiz qiyshiq bo‘lib qolishi mumkin. Kelinglar, hammamiz o‘rnimizdan turamiz va birgalikda qo‘shiq kuylaymiz.

Vizual kontent

“O‘zbekistonim” bolalar qo‘shig‘i – Karaoke

https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/518

O‘qituvchi: O‘ylaymanki, bugungi darsimiz sizga foydali bo‘ldi. Unutmang: Yer yuzida millionlab kitoblar bor. Demak, hali siz o‘qiydigan qiziqarli kitoblar oldinda!

Shu bilan bugungi darsimiz o‘z nihoyasiga yetdi. Keyingi darsda ko‘rishguncha xayr bolajonlar!